



“THE SHAHRIYAR OF PERSIA” OR THE STAR THAT SHINES IN THE EASTERN SKY

Nozima Khodieva

Senior lecturer

Tashkent State University of Oriental Studies

Tashkent, Uzbekistan

Mirasatullo Mirikramov

Student

Tashkent State University of Oriental Studies

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Firdowsi, historian, “Shakhnoma”, works, artistic skill, glorious history, Iran and Turan, definition, attention.

Received: 28.05.23

Accepted: 30.05.23

Published: 01.06.23

Abstract: Abulkasim Firdavsi is a great scientist. His work was influenced by his predecessors. The writer inspired the next generation with his poetry, images and ideas. This article focuses on the uniqueness of Firdousi's work, its traditions and literary influence, and extensively analyzes the author's work “Shakhnoma” and his research.

“FORS SHAHRIYORI” YOXUD SHARQ OSMONIDA PORLAGAN YULDUZ

Nozima Xodiyeva

katta o'qituvchi

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Toshkent, O'zbekiston

Mirasatullo Mirikramov

Talaba

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Firdavsiy, tarixchi, “Shohnoma”, asarlar, badiiy mahorat, shonli tarix, Eron va Turon, ta'rif, e'tibor.

Annotatsiya: Abulqosim Firdavsiy - buyuk alloma. U ijodida o'z salaflaridan ta'sirlangan. Keyingi avlod vakillariga esa adib o'zining she'riyati, obraz va g'oyalari orqali ilhom bergan. Ushbu maqolada Firdavsiy ijodining o'ziga xosligi, an'ana va adabiy ta'sir masalasiga e'tibor qaratilgan hamda adibning “Shohnoma” asari va asar tadqiqotlari keng tahlil qilingan.

“ШАХРИЯР ПЕРСИИ”, ИЛИ ЗВЕЗДА, СВЕТЯЩАЯ НА ВОСТОЧНОМ НЕБЕ**Нозима Ходиева***Старший преподаватель**Ташкентский государственный университет востоковедения**Ташкент, Узбекистан***Мирасатулло Мирикрамов***Студент**Ташкентский государственный университет востоковедения**Ташкент, Узбекистан***О СТАТЬЕ**

Ключевые слова: Фирдоуси, историк, “Шахнома”, произведения, художественное мастерство, славная история, Иран и Туран, определение, внимание.

Аннотация: Абулькасим Фирдавси – великий ученый. На его работу повлияли его предшественники. Писатель вдохновлял представителей следующего поколения своей поэзией, образами и идеями. В данной статье основное внимание уделяется уникальности творчества Фирдоуси, его традициям и литературному влиянию, а также обширно анализируется авторское произведение “Шахнома” и его исследования.

KIRISH

*Siz ilmga bor-yo ‘g‘ingizni bermaguningizcha,
ilm sizga hech nima bermaydi.*

Abu Homid Al-G‘azzoliy

Ilm – insonni yo‘qlikdan borlikka yetaklovchi, tubsiz jarlikdan yuksaklikka ko‘taruvchi, jaholatdan ma’rifat sari boshlovchi buyuk kuch. Ana shu ulug‘ kuch natijasida inson o‘zligini anglatdi, o‘z tarixi, kechagi kuniga nazar soldi. “Ilm xoh diniy, xoh dunyoviy bo‘lsin, agar to‘g‘ri yo‘lda bo‘lsa, uni hech qanday tashqi omil yo‘q qila olmaydi” – degan edi fors yozuvchisi Ahmad Hotamiy. Darhaqiqat, dunyo tan olgan olim-u fuzalolar ham, o‘z darajalariga aynan ilmdan to‘g‘ri yo‘lda foydalanganliklari tufayli erishishgan desak, xato bo‘lmaydi. Shu o‘rinda o‘rta asrlarda jahon ilm tamadduniga o‘zlarining beqiyos hissalarini qo‘shtigan sharq allomalarini yodga olish o‘rinlidir. Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, Farobiy kabi yurtimiz, Firdavsiy, Jomiy, Umar Hayyom singari Yaqin va O‘rta Sharq allomalari, shoir-u, yozuvchilar yaratgan takrorlanmas asarlari natijasida vujudga kelga madaniyatdan andoza olgan holda, keyinchalik, Yevropada “Rennessans” davri vujudga kelganligi G‘arb olimlari tomonidan tan olingan jihatdir. Sharq qomusiy olimlari ichida bir inson borki, uni yodga olmaslikning iloji yo‘q, nazarimizda. Bu inson buyuk tarixchi, o‘z asarlari orqali keljak avlodga beqiyos ilm manbayini qoldirgan alloma – Abulqosim Firdavsiydir.

ASOSIY QISM

Abulqosim Firdavsiy Tusiy – taxminan 934-936-yillarda Eronning Tus (hozirgi Firdavs) shahrida tavallud topgan fors shoiri va mutafakkiridir. Firdavsiy zamonasining barcha asosiy ilmlarini egallab, arab va pahlaviy tillarini chuqur o‘rganganligi va o‘z davrining qomusiy olimi bo‘lib yetishganligi uchun uni xalq orasida “Hakim” deb ulug‘lashgan. Shoир Nishopur va Tus shaharlaridagi madrasalarda tahsil olgan. U Eron, Turon, Yunon va Hindiston olimlarining turli sohadagi asarlaridan yaxshigina xabardor bo‘lgan. Firdavsiyning yoshligidanoq she’rlar mashq qila boshlaganligi to‘g‘risida ma’lumotlar bo‘lsada, she’rlarining o‘zi bizgacha yetib kelmagan. Firdavsiyning yoshlik yillari Somoniylar davlatining gullab-yashnagan davriga to‘g‘ri keladi. Bu davrda Eron va Turon xalqlarining nafaqt ijtimoiy-siyosiy, balki madaniy-ma’naviy hayotida ham ko‘tarilish kuzatilgan. O‘zining kimligini anglash va uni boshqalarga ham ko‘rsatish maqsadida ular Eron va Turonning shonli tarixini tiklashga intiladilar. Shu maqsadda qadimiy afsona va rivoyatlar, buyuk shaxslar va bahodirlar tarixi to‘planadi va yoziladi. Bu boradagi intilishlarni Somoniy hukumдорлар ham qo‘llab-quvvatlagan. Buxoro amiri Nuh Ibn Mansur Somoniy Firdavsiyni huzuriga chorlab, unga “Shohnoma”ni yozishni buyuradi. Bundan maqsad shonli tarixi va buyuk shon-shavkatiga ko‘ra forsiy xalqlarning arablardan kam emasligi, balki ustunligini ko‘rsatish edi. Vatanga va uning buyuk tarixiga muhabbat ruhida tarbiyalangan, bolalikdan qadimiy afsona va rivoyatlar, qahramonlik qissalarini, jangnomalarni jon qulog‘i bilan tinglab ulg‘aygan Firdavsiyning o‘zi ham xalq ichida yurib, ularni yozib olgan, ko‘plab og‘zaki va materiallar to‘plagan.

Eron va Turon xalqlarining qariyb 4 mingyillik tarixi yuksak mahorat bilan qalamga olingan “Shohnoma” ustida Firdavsiy 30 yildan ortiq mehnat qiladi. Tadqiqotchilar asarni 3 qismga bo‘ladi: 1-qismda eng qadimgi afsonalar qayta ishlanib, nazm ipiga terilgan bo‘lsa, 2-qismda xalq qahramonlari haqidagi rivoyatu qissalar badiiy talqin qilinadi. 3-qismda tarixiy shohlar hayoti qalamga olinadi. “Shohnoma” eng qadimgi davrlardan boshlanib, sosoniylar shohi Yazdigard III davrida arablarning Eronga bostirib kirishi bilan yakunlanadi. Umumiy hajmi 60 ming bayt bo‘lgan bu asar mavzu ko‘lami, obrazlar xilma-xilligi g‘oyaviy motivlari jihatidan jahon adabiyotidagi eng katta epik asar hisoblanadi. 100 dan dostonlardan tashkil topgan asarda 1000 dan ziyod katta-kichik personajlar ishtirok etadi. Ayni jihatdan “Shohnoma” – xalq zakovati va jasoratiga qo‘yilgan o‘ziga xos nazmiy haykal hisoblanadi.

“Shohnoma”ning asosiy g‘oyasi – Vatanni ulug‘lash, xalq qudrati va zakovatini ko‘z-ko‘z qilish, millat farzandlarini vasf etish va shu orqali ularni birgalikda, markazlashgan davlat qurishga chqirishdan iborat.

“Shohnoma” chinakam xalq kitobiga aylanib, xalq orasida keng tarqalgandan so‘ng muayyan o‘zgarishlarga ham uchragan. Shuning uchun temuriy shahzodalardan Boysung‘ur Mirzo uning 40 dan

ortiq nusxalarini o‘zaro qiyoslab, mukammal matn tuzdirgan. Fanda “Shohnoma”ning Boysung‘ur nusxasi sifatida mashhur bu matn asarning eng ishonchli nusxalaridan biri sifatida tan olinadi. “Shohnoma” dunyoning ko‘plab tillariga tarjima qilingan. Jumladan, XIII asr boshida arablar, XV-XVI asrlarda turk va gurjilar, XIX asrda esa fransuz, ingliz, nemis, italyan va rus tillariga o‘girildi. “Shohnoma”da aks ettirilgan qissa va dostonlarning voqeа-hodisalari o‘rta asrlardayoq Andalusiya musulmonlari orqali Yevropa xalqlari adabiyoti sari yo‘l olgan, boshqacha aytganda, u mintaqada keng tarqala boshlagan. “Shohnoma”dek buyuk asarni Yevropaliklarga tanishtirgan shaxs ingliz sharqshunosi Uiliyam Jonsdir. Jons “Osiyo she’riyatidan tarjmalar” va “Sharq shoirlari haqida maqolalar” nomli kitoblarida o‘z imkonni darajasida Firdavsiyi evropaliklarga tanishtirgan. Shuningdek, Fransuz sayyohi Shardin haqida ikki og‘iz so‘z yuritish joiz. Uning 1811-yilda Parijda nashrdan chiqqan “Sayohatnama” nomli kitobida Firdavsiya iqtidorli tarixnavis sifatida baho berib o‘tadi. O‘sha davr mashhur tanqidchilaridan biri J.Amper “Shohnoma”ni o‘qiydi va 1839-yilda “Ikki jahon” jurnalida Firdavsiy haqida maqola yozib nashr qiladi. Mashhur yozuvchi Vitor Gyugo “Shohnoma” mazmuni bilan tanishgach, 1859-yilda “Asrlar afsonasi” nomli asarini yozishga kirishadi va “Shohnoma”ni fors adabiyoti gultoji sifatida tasvirlaydi.

Jumladan, yana bir fransuz olimi Adolf Avril 1885-yilda “Shohnoma”dagi ayollar obrazi haqida risola yozadi. Bu risolada u “Shohnoma”da aks ettirilgan ayollar obrazini o‘sha davr Yevropa ayollari bilan o‘zaro qiyoslab o‘rganadi va unda sharq ayollari donishmand, dono va mehribondir degan xulosaga keladi.

XULOSA

Bu mangu asar haqidagi taddiqotlar silsilasi ham Firdavsiy vatanida, ham chet ellarda hali davom etadi. Zero, bu asar bashariyat tarixi, ayniqsa, Eron va Markaziy Osiyo xalqlarining bir necha mingyillik asotiri va tarxini aks ettirgan ko‘zgudir. Boshqacha ta’bir bilan ifodalaganda, Firdavsiy – O‘rta asr Sharq uyg‘onishining ulug‘ san’atkor adibi. Uning nomi Abu Rayhon Beruniy va Ibn Sino singari mashriqu mag‘ribga tarqalgan. “Dunyoning birinchi raqamlı shoirlaridan biri bo‘lgan Firdavsiy o‘z xalqining ko‘p mingyillik tarixini she’riy til bilan qayta tiriltirib, uning abadiy poetik haykalini bunyod etdi” – deydi rus sharqshunosi N.G.Chernishevskiy. Diyorining shonli o‘tmishi bilan fahrlanuvchi, uning kelajagi haqida qayg‘uruvchi shoirning yuragi bu kitobda hamon urib turibdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Davis D. Introduction // Ferdowsi. Shahnameh. The Persian book of kings – L., 2007.
2. Iradj Afshar. Katabshenasie Ferdowsi. – Tehran, 1968.
3. Masse H. Firdousi et l'épopée nationale – P., 1935.
4. Nöldeke Th. Das iranische Nationalepos, 2 – L., 1920.
5. Richard N. Frye. The Golden Age of Persia (Weidenfield, 1975). – p. 200.

6. Shukurov Sh.M. Firdavsiy “Shohnoma”si va qadimgi fors an’analari. –M., 1983.
7. Бертельс Е.Э. Абул-Касим Фирдоуси и его творчество. – М., 1935.
8. Брагинский И.С. Персидско-Таджикская литература (IX-X вв.) // “История всемирной литературы” – М.: Наука, 1984. – 672 с.
9. Дьяконов М. М. Фердоуси: Жизнь и творчество. – М., 1940.
10. Стариков А. А. Фердоуси и его поэма «Шахнаме». – М., 1957.